

ERKIN VOHIDOV IJODIDA DEYKSIS TURLARINING QO'LLANILISHI

*Farg'ona davlat universiteti
Filologiya fakulteti magistranti
Xudoyberdiyeva Nargizaxon*

Annotatsiya: Ushbu maqola pragmalingvistikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan deyksis va uning Erkin Vohidov ijodidagi o'rni masalalariga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: deyksis, zaom deyksisi, shaxs, deyksisi, deixix, shifter

XX asrga qadar tilshunos olimlar diqqat markazida til va uning umumiy grammatikasi bilan bog'liq masalalar turgan bo'lsa, XX asr oxiriga kelib tilni til egasi bilan birga o'rganish fanga kiritildi. "Antroposentrik paradigma" atamasi ostida "til va inson omili" tushunchasi o'rganila boshlandi. Endi tilning shakllanishi, rivojlanish va o'zgarishi kabi umumiy taqdiqotlar inson bilan birga o'rganila boshlandi. Tilshunoslikdagi yangi sohalar o'z oldiga yechilmagan masalalarni o'rganishni maqsad qilib oldi. Xususan, pragmalingvistikada "deyksis" hali to'liq o'z yechimini topmagan muammolardan biri sanaladi. "Deyksis so'zining asl yunoncha ma'nosi "ko'rsatish", "ishora" bo'lib, ilmiy qo'llanilishda lison vositasida "voqelikka ishora, ko'rsatish" mazmunini olgan".¹ Dyksis hodisasi, uning kelib chiqishi, pragmalingvistikaga oidligi, uning turlari haqida bir qator tilshunos olimlar ilmiy taqdiqotlar olb borishgan. Jumladan jahon tilshunoslaridan "K.Brugman, O. Espersyon, N.d. Artyunova, E.M.Volf, G.G. Matbuba kabi olimlar izlanishlar olib bordilar. O'zbek tilshunosligida bu borada yetakchi mutaxassislardan biri professor Sh.Safarovning deyksis bo'yicha "Pragmalingvistika" asarini ta'kidlash lozim".² Bundan tashqari Farg'ona "Pragmalingvistika maktabi" asoschisi professor M.Xakimovning "Pragmalingvistika asoslari" asarini ham aytib o'tishni joiz deb bilaman. M.Xakimov aytishlaricha "Deyksis termini grekcha "deixix" so'zidan olingan bo'lib, lisoniy birliklar funksiyasi yoki ma'nosini ko'rsatish degan ma'noni bildiradi".³ Yuqoridagi fikrlar asosida shuni ta'kidlash lozimki, deyksis o'zidan oldingi yoki keyingi birliklarga ishora qiluvchi hodisa hisoblanadi. "Bu hodisa tilshunoslikda dastlab "shifter"termini bilan bog'liq"⁴. Demak, deyksis hodisasini ifodalaydigan birliklar qatoriga birinchi navbatda ichi bo'sh so'zlarni kiritamiz.

¹ Safaraov SH. Pragmalingvistika.-Toshkent, O'zbekiston ilmiy ensiklopediyasi, 2008-B 154

² Xakimov M., G'aziyeva M. Pragmalingvistika-Toshkent,2020-B 58-59.

³ Xakimov M., G'aziyeva M. Pragmalingvistika-Toshkent,2020-B 61.

⁴ Xakimov M., G'aziyeva M. Pragmalingvistika-Toshkent,2020-B 64

Chunki tilshunoslikda olmoshlarga “ ot, sifat, son o’rnida qo’llanuvchi mustaqil so’z turkumi”⁵ deb ta’rif beriladi. Deyksisning shaxs, zamon, makon, diskurs, emotsional, sotsial deyksis kabi turlari mavjud. Shaxs deyksisi qatoriga professor Sh. Safarov “men, sen,u, biz, siz, ular” kabi leksemalarni kiritadi. Biz bularga qo’shimcha qilib, “o’zim, o’zing, o’zi, o’zimiz, o’zingiz, o’zlari, kamina, fakir, biri” leksemalarini kiritib o’tishni tavsiya qilamiz. Chunki, biz keltirgan misollar ham matnda shaxsga ishora qilib keladi. Masalan, Chingiz Aytmatovning “Jamila” qissasidan olingan quydagi parchaga e’tibor qarating:

“Chunki Doniyor juda odamovi edi, gapirganda ham uni butunlay boshqa, faqat o’zigagina ma’lum bo’lgan narsalar to’g’risida xayol surayotgani, kishiga tikilib tursa ham, ko’ngli boshqa yoqda ekanligi shunday sezilib turardi”.⁶ E’tibor qaratadigan bo’lsak jumladagi “o’zigagina” leksemasi Doniyorga ishora qilib kelmoqda. “Kamina”, “Faqir” leksemalari esa tilshunoslikda birinchi shaxs birlik ma’nosini ifodalash uchun qo’llaniladi. “Biri” leksemasining shaxsga ishora ma’nosida kelishini esa Erkin Vohidov she’rlari misolida ko’rishimiz mumkin.

Gul bo’lib, gul-gul yonib

Gulshan aro Gulchehralar

Gul uzib o’ynar, kuyib

Gulaga bino Gulchehralar

Qay birisi qay biriga

Oshiq erkan bilamdim

Gulmi yo Gulchehralarga

Gulga yo Gulchehralar⁷

She’rning beshinchi misrasidagi “birisi”, “biriga” leksemalari “Gul” va “Gulchehra” so’zlariga ishora ma’nosida kelmoqda. Erkin Vohidov ijodida deyksisning shaxs deyksisi turi juda keng qo’llaniladi. Biz yuqorida tilga olgan o’zlik olmoshlarining shaxs deyksisiga misol tariqasida quyidagi she’rini keltirib o’tmoqchiman.

Ajab, vasling men endi

⁵ O’zbekiston milliy ensiklopediyasi-2000-2005

⁶ Aytmatov Ch.Jamila.-Toshkent.-O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018-B 17

⁷ Vohidov E. Tabassum.-Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi,2013-B 34

Eshitganda ko'rindi moh
 Masal borkim, og'iz oshga
 Burun toshga tegibdir, voh!

Sening, deb she'r bitib avval
 O'zim bo'ldim asiri ishq
 O'zi tushgay emish oxir
 Birovga kimki qazgay choh

Bo'libsan oshiq, Erkin
 O'z umid jondin, o'kinch qilmay
 O'zingga, deydilar, dushman
 Keyin chekkan pushaymon, oh.⁸

She'rdagi "o'zim" so'zlayotgan insonga, "o'zi"nutqda mavjud bo'lmagan insonga, "o'zing" eshitayotgan insonga ishora ma'nosida kelmoqda. Bundan tashqari she'rda "men", "sen" deyksislarining qo'llanilishi shoirning deyktik iboralardan unumli foydalanilishiga misol bo'la oladi.

Bundan tashqari professor SH. Safarov " taqvimli belgilar vaqt oralig'ini aniq o'lchoviga ishora qilmaydi. Binobarin, "Dushanba kuni ko'rishamiz " gapining mazmunini to'liq anglash, qaysi dushanba nazarda tutilayotganinibilish uchun ushbu va'da qachon berilayotganligini bilish zarur (bu va'da yakshanba va sheshanba kuni naytilganligiga nisbatan vaqt o'lchovi bir kundan yetti kungacha farq qiladi)⁹ degan fikrni ham aytib o'tgan. Bizningcha vaqt ma'nosin beradigan oy, hafta, kun nomlarining o'zi zamon deyksisi bo'la oladi. Masalan, " Payshanba maosh kuni edi. Peshindan keyin atrofi taxta devor bilan omonat o'ralgan qurilish hovlisiga chang-to'zon ko'tarilib "ZIL" mashinasi kirib keldi"¹⁰. Parchadagi payshanba, peshin zamon deyksislaridan oldin hech bir aniqlovchi leksema kelmasa ham zamon deyksisi ma'nosini anglatib turibdi.

⁸ Vohidov E. Tabassum.-Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi,2013-B 39

⁹ Safaravov SH. Pragmalingvistika.-Toshkent, O'zbekiston ilmiy ensiklopediyasi, 2008-B

¹⁰ Hoshimov O'. Ikki eshik orasi.-Toshkent. Meriyus,2015-B 4

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safaraov SH. Pragmalingvistika.-Toshkent, O'zbekiston ilmiy ensiklopediyasi, 2008-B 154
2. Xakimov M., G'aziyeva M. Pragmalingvistika-Toshkent,2020-B 58-59.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi-2000-2005
4. Aytmatov Ch.Jamila.-Toshkent.-O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018-B 17
5. Vohidov E. Tabassum.-Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi,2013-B 34
6. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi.-Toshkent. Meriyus,2015-B 4
7. Fayziev, M.A. "Kompyuter simulyatsiyasi modeli asosida talabalarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi ("Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan misolida): Dis.... Kand. ped. fan." *Toshkent: TDPU* (2008).
8. Shadiev R. et al. Familiarization Strategies to Facilitate Mobile-Assisted Language Learning in Unfamiliar Learning Environments: A Study of Strategies Development and Their Validation //International Conference on Innovative Technologies and Learning. – Cham : Springer International Publishing, 2022. – C. 213-217.
9. Shadiev R. et al. Correction to: Familiarization Strategies to Facilitate Mobile-Assisted Language Learning in Unfamiliar Learning Environments: A Study of Strategies Development and Their Validation //Innovative Technologies and Learning: 5th International Conference, ICITL 2022, Virtual Event, August 29–31, 2022, Proceedings. – Cham : Springer International Publishing, 2022. – C. C1-C1.
10. Shadiev R. et al. The effects of familiarity with mobile-assisted language learning environments on creativity //2022 International Conference on Advanced Learning Technologies (ICALT). – IEEE, 2022. – C. 242-244.
11. Toshturdiyevna K. D., Asfandiyarovych F. M. FORMATION OF THE SPIRITUAL HERITAGE OF TEMURY QUEENS IN SCHOOL GIRLS ON THE BASIS OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES //International Conference on Research Identity, Value and Ethics. – 2023. – C. 47-51.
12. Shadiev R. et al. Improving Student Learning Satisfaction in Lectures in English as a Medium of Instruction with Speech-Enabled Language Translation Application //Innovative Technologies and Learning: Third International Conference, ICITL 2020, Porto, Portugal, November 23–25, 2020, Proceedings 3. – Springer International Publishing, 2020. – C. 576-581.